

O'ZLASHGAN SO'ZLAR VA ULARNING ANDRE MORUA ASARLARIDA QO'LLANILISHI

Otamurodova Dilafruz Raxmonovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
fransuz tili amaliy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

otamurodovadilafruz@gmail.com

Oqbutayeva Tumora Xudoyberdi qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zlashgan so'zlarning mashhur fransuz yozuvchisi Andre Morua novellalaridagi ayrim xususiyatlari tahlil qilinadi. Adibning o'z asarlarida ko'proq o'zlashgan so'zlarga murojaat qilishi, g'oyani ochib berishda ushbu so'zlardan mohirona foydalanishi uning asarlarining ta'sirchanligini oshirib, keng kitobxonlar orasida sevilib o'qilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, maqolada o'zlashgan so'zlar va va ularning qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: novella, o'zlashgan so'z, qaxramon, adabiyot, voqea, mazmun.

Abstract. In this article it is discussed the peculiarities of the loanword of short stories of French writer Andre Mauro is given. The author in the products pays the big attention to the loanword uses art details to rise in the short stories sensitivity. Therefore its products have huge popularity among readers/ Besides, in the article the characteristics of short stories of Andre Mauro is studied. Furthermore, different sorts of loanword and their implementations are analyzed in the article.

Keywords: novel, loanword, hero, literature, event, content, epoch.

Leksika inson faoliyati bilan bog'liq ravishda doim o'zgarib turadi. Lingvistik qonuniyatlar insoniyat tarixiga asoslanadi. Ayni jarayon fransuz tilida asosan uch yo'l bilan amalga oshadi: ichki manbalar - yangi so'zlar yasash va tildagi mavjud so'zlarning ma'no o'zgarishi; tashqi manba - boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar. [3, 135] Har qanday tilning rivojlanishi asosan xalq tarixi va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu hodisa, ya'ni o'zlashgan so'zlar tilning lug'at tarkibi boyishining asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Fan va texnika, inson tafakkuri va siyosiy hayotning, xalqlar o'rtasidagi madaniy va savdo aloqalarining rivojlanishi u yoki bu tilga boshqa tillardan ko'plab so'zlarni o'zlashtirishga sababchi bo'ladi. Chunki xalq o'z tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lib kelgan. Mana shu aloqa-aralashuv natijasi o'laroq tilga boshqa tillardan so'zlar kirib, o'zlashib ketgan.

Har bir tilning qudrati uning yaratuvchanlik va aloqa vositasi sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi. Lingvistik tizim qancha rivojlansa, til ham shuncha foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi. O'z imkoniyatlarini va boshqa tillar imkoniyatlaridan foydalana olmaydigan til rivojlana olmaydi.

Fransuz tili tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bunda til asosan *lotin* (o'rta asrlarda tarjima qilish kuchaygan XIV-XV asr), *grek* (lotin tili orqali XVI asr), *arab* (Fransiya va Yaqin Sharq o'rtasidagi savdo aloqalari va matematika va astronomiya taraqqiyoti XII va XIII asrlar), roman tillaridan *italyan* (urush va savdo orqali - XIV-XV asr, fan, san'at, arxitektura - XVIII va XVI asr), german tillari (harbiy Fransiya va

Germaniya o'rtasidagi urush XVI asr) va ingliz tillaridan kirib kelgan so'zlar hisobiga boyib borgan. [1, 64]

O'zlashma so'zlarning kirib kelish sabablari bevosita ijtimoiy tarixi, ayniqsa siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, bu shart-sharoitlar ijtimoiy lingvistik vaziyatlarni rivojlantiradi. Masalan, ingliz tili fransuz tilidan bir qator so'zlarni o'zlashtirgan bo'lsa, bu tillar o'rtasidagi tabiiy almashish natijasida yuz bermagan bo'lib, balki 1066 yilda Angliyaning normandlar tomonidan bosib olinganligi sabablidir.

Dunyoda boshqa tillardan so'z olmaydigan biror til yo'q. Fransuz tili milliy til darajasiga ko'tarilgandan buyon boshqa tillardan uzluksiz so'zlarni o'zlashtirib keladi. Lingvistik dalil sifatida har biri o'z mustaqilligini saqlagan ikki tilning o'zaro so'z almashinuvini olishimiz mumkin. O'zlashtirma so'z yoki so'z elementi bu shubhasiz boshqa begona tildan o'tkazib olingan bo'ladi. Fransuz xalqi boshqa xalqlar tilida paydo bo'lgan tushuncha va so'zni o'zlashtirib olish bilan birga, shu predmet va tushunchani ham qabul qilib olgan.

Ushbu o'zlashgan so'zlar nafaqat tilda balki adabiy asarlarda ham o'z aksini topgan. Fransuz adiblari o'z asarlarining ma'nodorligi, jozibadorligi va uslubiy ta'sirini oshirish maqsadida o'zlashgan so'zlardan foydalanishgan. Mashhur fransuz yozuvchisi Andre Morua o'z asarlari o'zlashgan so'zlarga ko'p murojaat qilgan. Adib o'zining "Nouvelles" ("Novellalar") to'plamiga kiruvchi bir qator hikoyalarida o'zlashgan so'zlardan mohirona foydalana olgan.

«Thanatos Palace Hôtel» novellasini oladigan bo'lsak, unda ko'proq ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Masalan, voqea bo'lib o'tayotgan joy nomini ko'rsatish uchun «Manhattan», «Deeming» so'zlari ingliz tilida qanday bo'lsa, shundayligicha qo'llanilgan. [2, 26]

Voqealar rivojida ingliz kompaniyasiga tegishli aksiyalar narxi ingliz pul birligi «cent» (syent) so'zini shaklida berilgan. «Cent» AQSHda dollarning 1/100 qiymatiga teng mayda pul birligidir. Birinchi chaqalar "Vashington syenti" [Washington cent] nomi bilan 1793 yilda muomalaga kiritilgan. "Syent" so'zi esa birinchi marta 1787 yilda Massachusetsda qo'llanilgan. 1783 yilda boshlab esa syentlar rasmiy pul birligi sifatida chiqarila boshlangan. Zamonaviy syentlarda AQSHning sobiq prezidenti A.Linkoln [Lincoln, Abraham] portreti tasviri tushirilgan.

Morua pul birligini tasvirlashda «Lye Rorche corinthien» novellasida «shilling» so'zini ishlatgan. "Shilling" ingliz kumush tangasi bo'lib, qiymati 1/20 funta sterlingga yoki 12 pensaga teng. Ushbu termin bir qator davlatlarning umumiy pul birligi hisoblanadi: 1971 yilgacha Buyuk Britaniyada mayda chaqa, 1966 yilgacha Avstraliyada va 1967 yilgacha Yangi Zelandiyada qiymati 1/20 funt va 12 pensaga teng bo'lgan. Novella qahramoni yo'l olgan vagon nomi hech qanday tarjimasiz o'zlashgan shaklida «Pullman» deb yozilgan. «Pullman» aslida [pulmən(treɪn)] ya'ni pulman poyezdi, birinchi klass va vagon-restorani bor uzoq yo'lga mo'ljallangan tezyurar bo'lib, 1831-1897 yillarda yashab o'tgan amerikalik injener va sanoatchi J.M.Pulman [George M.Pullman] sharafiga shunday nomlangan.

Qahramon kiyimini tasviri «smoking» [smøkiŋ] "smoking", pidjak yoki kostyum ko'inishida berilgan. Asarning boshqa qahramonlarining unga murojaati «sir» "ser" so'zida aks etgan. «Sir» so'zi aslida erkaklarga nisbatan iltifot ma'nosida o'zidan yuqori tabaqa vakili, o'qituvchi, armiyadagi unvonlar uchun ishlatilgan. Ushbu so'z

shuningdek «Lye Rorche corinthien» novellasida ham bosh qahramonga nisbatan ko'p bora qo'llanilgan.

«Arianne, ma soeur...» novellasida «stop» so'zi telegrammaning tinish belgisi nuqta ma'nosida bo'lib, «Stop» aslida to'xtash, pauza, bekat ma'nosini anglatib, ingliz tilidan fransuz tiliga xuddi shunday ishlatilgan.

«Lye Rorche corinthien» novellasida «Park Lane» ['pa:k,lem] so'zi o'rin-joy nomini ko'rsatish uchun qo'llanilgan. Park-Leyn Londonda joylashgan Uest-Ende [West End]dagi mashhur ko'cha nomi bo'lib, hashamatli uy va mehmonxonalari bilan dunyoga tanilgan.

«Une carrière» novellasida qahramon kasbini ifodalash maqsadida «manager» so'zi berilgan. Bu so'z aslida boshqaruvchi, rahbar, direktor, mudir, ya'ni mol-mulk egasi, odamlarga rahbarlik qiluvchi shaxslarga nisbatan ishlatilgan bo'lib, birinchi marta ushbu termin asosiy va xususiy sektorda, keyinchalik davlat boshqaruvi sohasida qo'llanilgan.

«Raz de marée» novellasida muallif xizmatkorni «boy» so'zi bilan ifodalagan. Bu so'z bola, o'g'il, o'rtoq, yunga, o'spirin, xzmatkor, yugurdak kabi ma'nolarga ega.

Shu bilan birga A.Morua asarlarida ingliz tilidan tashqari boshqa tillardan ham fransuz tiliga o'zlashgan so'zlarni uchratish mumkin. Jumladan, «Thanatos Palace Hôtel» novellasida «Thanatos» so'zi grek tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, «o'lim»ni bildiradi. Yana shu novellada italyan tilidan kirib kelgan «signor» «janob»ni anglatuvchi so'zni ham ko'rish mumkin.

Italyan tilidan o'zlashgan so'z «Monte Cassino»ni orqali «Raz de marée» novellasida joy nomini ko'rsatilgan. Bu Italiyadagi mashhur tog' nomini bildiradi. Morua novellarida ispan tilidan o'zlashgan so'zlar ham mavjud. Masalan, «Tu es une grande artiste» novellasida bosh qahramon xarakterini ochib berish uchun muallif «donjuanesque» sifatini qo'llagan. Bu so'z ispan afsonasi va ko'plab mashhur asarlar qahramoni bo'lgan Don Juanga xos ishqiy sarguzashtlarga moyilligi bo'lgan insonlarga nisbatan aytilgan.

«La Carte postale» novellasida qahramon qiz Natashaning enagasi ma'nosida unga nisbatan «Fraulein» so'zi qo'llanilgan. [2, 87] Bu so'z turmushga chiqmagan qiz, guvernant, ya'ni bolaning tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi xizmatkorlarga uchun XV-XVIII asrlarda ishlatilgan.

A.Morua asarlarining eng qiziq jihati unda sharq xalqlaridan kirib kelgan so'zlarning qo'llanilishidir. «Thanatos Palace Hôtel», «Irène» novellarida arab tilidan o'zlashgan «schéhérazade» so'zi bo'lib, sharq ertaklaridagi qahramon qiz qiyofasi gavalantirilgan. Arab tilidan o'zlashgan «baraka» so'zi «Raz de marée» novellasida omad, barakali umr, muvaffaqiyatli nikoh ma'nosini o'zida mujassam etgan.

Bir so'z bilan aytganda mashhur fransuz yozuvchisi A.Morua asarlarining muhim jihati shundaki, ularda turli xil xalqlarning tillaridan o'zlashgan so'zlardan o'z o'rnida, ustalik bilan foydalana olgan. Uning asarlari yaratilganligiga ko'p bo'lgan bo'lsa, ular jozibadorligi, ma'nosi teranligi, keng ommaga mo'ljallanganligi, sodda ravon tilda yozilganligi butun dunyoda mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Til jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi va u insoniyatga xizmat qiladi. Agar biror til yangi elementlarni o'zlashtirishdan to'xtasa, bu shu tilning yo'q bo'lib ketishga tayyorlanayotganidan darak beradi. Tirik til har doim rivojlanishda va shunday bo'lishi ham kerak. Shu bilan birga yangi so'zlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini ham saqlab qolishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Лопатникова Н. Мовшович Н. Лексикология современного французского языка. – Москва, 1982. - стр 251
2. Моруа А. “Новеллалар” – Ленинград, 1972. - стр 119
3. Umbarov N., Hamroqulov G'. “Hozirgi zamon fransuz tili leksikologiyasi” Toshkent. “O'qituvchi”, 1996, - 283 b.